Ona tili – ART texnologiya va kreativlik fanida so'z san'atining omili sifatida ........ 540
X. Sanaqulov, Sh. Nurmatova

Etnopedagogik yondashuvning boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiylashuv jarayoniga ta'siri ........ 543
Xamroqulova Xilola Qosimjon qizi

Ajdodlarimiz o'gitlari asosida o'quvchi-yoshlarda axloqiy sifatlarni shakllantirish texnologiyasi ........ 547
Xatamova Nilufar Xaydarovna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ o'qish madaniyatini rivojlantirishda generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari ........ 550
Xayitova Firuza Abdullayevna

Rivojlangan mamlakatlarda maktabgacha ta'limning mazmuni va tarixiy taraqqiyoti ........ 554
Yoziyeva Umida Lutfullayevna

O'quv vaziyatlarini loyihalash orqali talabalar o'quv faolligini oshirish ........ 558
Zakirova Dilfuza Sayidolimovna

O'quvchilar orasida jismoniy faollikni oshirish uchun yangi ilmiy yondashuvlar ........ 561
Zaynobidinov Dilshodbek Qobilovich

Активные методы обучения как коммуникационная основа современного урока ........ 566
Ахмедова Мукаддас Ходиматовна

Инклюзия как путь к равным возможностям: развитие системы образования Узбекистана ........ 570
Баротова Шохсанам Бахтиёр кизи, Мауш Ребия Джамшедовна, Мурадова Дилфуза Махмудовна

"Qurilish konstruksiyalari" fanini o'qitishda kasbiy-amaliy kompetentlikni rivojlantirish ........ 576
No'manova Soxiba Ergashboyevna

Креативный педагогический подход в музыкально-теоретических и практических занятиях по искусству макома ........ 582
Нурматова Фируза Муминовна

Система упражнений по методике обучения средствам речевой выразительности узбекского языка ........ 587
Фаттахова Д. А.

Oliy ta'limda kompetensiyaga asoslangan o'qitish modellari ........ 592
Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehra

# KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI NUTQIDA NUQSONI BOʻLGAN BOLALAR SHAXSLARARO MUNOSABATINI KORREKSIYALASHDA ERTAK TERAPIYASIDAN FOYDALANISH

Nigʻmatova Nodirabegim Lutfillo qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti
Logopediya yoʻnalishi MSPD-1U talabasi

Ilmiy rahbar: Mamarajabova Zulfiya Narboyevna
P.f.d., professor

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi nutqida nuqsoni boʻlgan bolalar bilan ishlashda ertak terapiyasidan foydalanishning psixologik va pedagogik jihatlari yoritilgan. Tadqiqotda ertak terapiyasining mohiyati, uning shaxslararo munosabatlarni korreksiyalashdagi oʻrni hamda nutqiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Ertak terapiyasi bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, oʻziga ishonchini oshirish va muloqotga kirishish koʻnikmalarini rivojlantirishda samarali usul sifatida baholangan. Maqolada ertak terapiyasi mashgʻulotlarining bosqichlari, ularni tashkil etish usullari, shuningdek, oila va maktab hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari ertak terapiyasining nutqida nuqsoni boʻlgan bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir koʻrsatishini tasdiqlaydi.

**Kalit soʻzlar:** ertak terapiyasi, nutq nuqsoni, kichik maktab yoshi, shaxslararo munosabat, psixokorreksiya, emotsional rivojlanish, inklyuziv ta'lim, oʻz-oʻzini baholash, psixologik moslashuv.

**Abstract:** This article examines the psychological and pedagogical aspects of using fairy-tale therapy to improve interpersonal relationships among primary school children with speech disorders. The study analyzes the essence of fairy-tale therapy and its role in enhancing speech development, emotional stability, and communication skills. Fairy-tale therapy is presented as an effective method for increasing self-confidence, reducing anxiety, and promoting positive social interaction. The paper describes the stages of therapy sessions, approaches to their implementation, and the importance of cooperation between teachers, psychologists, and parents. The findings confirm the positive impact of fairy-tale therapy on the personal and social development of children with speech impairments.

**Key words:** fairy-tale therapy, speech disorder, primary school age, interpersonal relations, psychocorrection, emotional development, inclusive education, self-esteem, psychological adaptation.

**Аннотация:** В статье рассмотрены психологические и педагогические аспекты использования сказкотерапии в коррекции межличностных отношений у младших школьников с речевыми нарушениями. Анализируется сущность сказкотерапии, её влияние на речевое развитие, эмоциональную сферу и коммуникативные навыки детей. Сказкотерапия определяется как эффективный метод повышения уверенности в себе, снижения тревожности и формирования позитивного социального взаимодействия. В работе раскрыты этапы сказкотерапевтических занятий, методы их организации, а также значимость сотрудничества педагога, психолога и родителей. Результаты исследования подтверждают положительное влияние сказкотерапии на личностное и социальное развитие детей с речевыми нарушениями.

**Ключевые слова:** сказкотерапия, речевые нарушения, младший школьный возраст, межличностные отношения, психокоррекция, эмоциональное развитие, инклюзивное образование, самооценка, психологическая адаптация.

## KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning sifatli ta'lim olishini ta'minlash masalasi davlat siyosatining eng muhim yoʻnalishlaridan biri sanaladi. Soʻnggi yillarda bu borada bir qator huquqiy-me'yoriy hujjatlar – Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari hamda tegishli vazirliklarning buyruqlari orqali inklyuziv ta'limni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim muassasala-

rida maxsus pedagogik yondashuvlarni joriy etish, logopedik xizmatlarni kengaytirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yosh avlodning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishida nutqning o'rni beqiyosdir. Nutq – insonning fikrini, his-tuyg'ularini ifodalash, shuningdek, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va mustahkamlash vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, bolalik davrida nutq orqali bola ijtimoiy tajriba orttiradi, o'zaro munosabatlarni shakllantiradi va shaxs sifatida rivojlanadi. Biroq ayrim bolalarda turli sabablarga ko'ra nutqning rivojlanishida kechikish yoki buzilishlar kuzatiladi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar ko'pincha o'zlariga ishonchsiz bo'lib qoladilar, muloqotdan chekinadilar yoki ba'zan agressiv xulq-atvor namoyon etadilar. Bu esa ularning shaxsiy shakllanishi va atrofdagilar bilan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli, nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning shaxsiy xususiyatlarini hamda ularning shaxslararo munosabatlarining rivojlanishini o'rganish va qo'llab-quvvatlash dolzarb ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nutq nuqsoniga ega bolalarda hissiy-irodaviy sohalarda ham muayyan qiyinchiliklar kuzatiladi. Ba'zilarida tormozlanganlik, qo'rquv, kayfiyatning tez o'zgarishi kabi holatlar ustun bo'lsa, boshqalarda esa asabiylik, yig'loqilik yoki befarqlik, irodasizlik holatlari namoyon bo'ladi. Psixologik adabiyotlarda (L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, A.R. Luriya) ta'kidlanganidek, bola shaxsining rivojlanishi, o'z-o'zini anglash jarayoni va muloqotga kirishish qobiliyati bevosita nutq faolligiga bog'liqdir. L.S. Vigotskiy nazariyasiga ko'ra, bola ijtimoiy tajribani, madaniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarni muloqot orqali o'zlashtiradi. Shunday ekan, nutqdagi buzilishlar bu jarayonlarga to'siq bo'lib, bolaning ijtimoiy hayotda to'liq ishtirok etishiga xalaqit beradi. E.V. Mastyukova o'z tadqiqotlarida nutq nuqsoni bolaning nafaqat muloqot faoliyatiga, balki umumiy psixologik rivojiga ham bevosita ta'sir etishini ta'kidlaydi.

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni ijtimoiy moslashtirishda bir qator psixologik metodlar samarali hisoblanadi:

1. **Psixologik relaksatsiya mashqlari** (chuqur nafas olish, vizualizatsiya, mushak relaksatsiyasi) – ichki zo'riqishni kamaytiradi.
2. **Ijtimoiy-psixologik treninglar** – o'zini ifoda etish, muloqotga kirishish, jamoa oldida chiqish ko'nikmalarini rivojlantiradi.
3. **Logoped va psixologning kompleks yondashuvi** – nutqni to'g'rilash bilan bir qatorda shaxsiy o'zgarishlarni ham kuzatadi.
4. **Oilaviy psixologik qo'llab-quvvatlash** – ota-onalarga bolaning nutqiy rivojiga to'g'ri yondashish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Dembo–Rubinshteyn shkalasi orqali bolaning o'z-o'zini baholash darajasi aniqlanadi. "Men nimalarga qodirman?", "Nimani yaxshi bajara olaman?" kabi mashqlar yordamida o'ziga ishonch oshiriladi. "Men haqimda ijobiy gap ayt" texnikasi bolalarda ijobiy fikr eshitish va uni qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi, "Rollar almashinuvi" metodi esa ijobiy ijtimoiy tajriba orttirishga xizmat qiladi.

Art-terapiya bolalarga o'z his-tuyg'ularini san'at vositalari orqali ifoda etish imkonini beradi. Nutqiy muammolarga ega bolalar uchun bu – o'zini erkin ifodalashning muhim vositasidir. "Oilam", "Men bugun", "Men kelajakda" kabi mavzulardagi rasmlar bolaning ichki dunyosini ochib beradi.

Biblioterapiya (kitob orqali tuzatish ishlari) ham duduqlanuvchi bolalarning ruhiy holatini yaxshilashda foydalidir. Bola kitob qahramonlari hayoti orqali o'z muammolarini anglaydi va ularni yengish yo'llarini o'rganadi.

Sensor-integrativ mashg'ulotlar (A. Jean Ayres konsepsiyasi asosida) bolaning sezgi, harakat va nutq jarayonlarini uyg'unlashtirishga yordam beradi. Bunday mashg'ulotlar orqali bolaning nutq markazlari, muvozanat va motorika faoliyati yaxshilanadi.

Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi yo'nalishlar samarali hisoblanadi:

1. **Psixoedukatsiya** – ota-onalarga nutq nuqsonlarining sabablari va to'g'ri yondashuv usullari haqida bilim berish;
2. **Trening mashg'ulotlari** – emotsional intellektni rivojlantirish va stressga bardoshlilikni oshirish;
3. **Individual maslahatlar** – oilaviy muloqotdagi xatoliklarni aniqlab, to'g'ri strategiyalar ishlab chiqish.

Ota-onaning emotsional qo'llab-quvvatlashi bolada o'ziga ishonch va tinchlik hissini kuchaytiradi. Masalan, bola duduqlanib qolganida "Shoshma, biz seni tinglayapmiz" kabi iboralar uning o'zini xavfsiz his etishiga yordam beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning rivojlanishi, ayniqsa, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda psixologik-pedagogik metodlarning ahamiyatini oshirmoqda. Nutq – bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishining asosiy vositasi bo'lib, u orqali bola o'z fikrini ifodalaydi, his-tuyg'ularini bayon etadi hamda

atrofdagilar bilan muloqotga kirishadi. Nutqdagi kamchiliklar esa bolaning oʻz-oʻziga ishonchini pasaytiradi, ijtimoiy faolligini cheklaydi va shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shu bois kichik maktab yoshidagi nutqida nuqsoni boʻlgan bolalar bilan ishlashda nafaqat logopedik, balki psixokorreksion yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik maktab yoshidagi nutqida nuqsoni boʻlgan bolalarning psixologik rivojlanishi va shaxslararo munosabatlarining shakllanishi logopediya ilmida muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biri sanaladi. L.S. Volkova tomonidan tuzilgan "Logopediya" toʻplamlarida nutq buzilishining psixologik va fiziologik mexanizmlari, fonetik-fonematik rivojlanishdagi nuqsonlarning bola ijtimoiy moslashuviga taʼsiri keng yoritilgan. S.S. Луапидевскийning "Невропатология" asarida esa nutq buzilishlari markaziy nerv tizimidagi funksional oʻzgarishlar bilan bogʻliq ekani, bu oʻzgarishlar bolaning emotsional barqarorligi va muloqotga kirishish qobiliyatini cheklashi ilmiy asoslangan. Shu bilan birga, K. Yungning arxetiplar haqidagi gʻoyalari ertak terapiyasining psixologik asosini belgilab, ramziy obrazlar bolaning ichki kechinmalarini qayta ishlashda samarali vosita ekanini koʻrsatadi.

Nutq buzilishiga ega bolalar bilan ishlash jarayonida pedagogik va psixologik korreksiya metodlarini uygʻunlashtirish masalasi E.N. Krauze, T.B. Filicheva va V.A. Kovshikov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda batafsil asoslangan. Filicheva fonetik-fonematik yetishmovchilikka ega bolalarning nutqiy rivojlanishidagi xususiyatlarni ochib berib, ularning kommunikativ faolligini oshirish uchun oʻyin, rolga kirish va obrazli materiallardan foydalanish zarurligini taʼkidlagan. Kovshikov esa ekspressiv alaliya boʻlgan bolalarda rolli sahnalashtirish, dramatizatsiya va ertak asosidagi mashgʻulotlarning nutq faolligi va muloqotga kirishish motivatsiyasini kuchaytirishini ilmiy dalillar bilan koʻrsatadi. Ushbu ishlanmalar ertak terapiyasining muloqot, his-tuygʻu boshqaruvi va ijtimoiy moslashuvni rivojlantirishda metodik asos boʻlib xizmat qiladi.

Oʻzbekistonlik olimlar – L.R. Moʻminova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova va R.Sh. Shomaxmudova tadqiqotlarida nutq nuqsoniga ega bolalarning psixologik xususiyatlari, oʻz-oʻzini baholash darajasi va muloqotdagi toʻsiqlari chuqur oʻrganilgan. Shomaxmudova bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda emotsional qoʻllab-quvvatlash va ijodiy yondashuvning ahamiyatini alohida taʼkidlaydi. Ayupova M.Y. tomonidan chop etilgan "Logopediya" darsligida esa nutqni korreksiyalashda oʻyin texnologiyalari, sensor integratsiya va ertak motivlaridan foydalanishning samaradorligi koʻrsatilgan. Ushbu ilmiy manbalar ertak terapiyasining nafaqat nutq buzilishlarini yumshatishda, balki bolalarning shaxsiy rivojlanishi, emotsional barqarorlik va shaxslararo munosabatlarini yaxshilashda muhim metodik vosita ekanini tasdiqlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kichik maktab yoshidagi nutqida nuqsoni boʻlgan bolalarning shaxslararo munosabatlarini korreksiyalashda ertak terapiyasining taʼsirini aniqlash maqsadida sifat va miqdoriy yondashuvlar uygʻun qoʻllandi. Maʼlumotlar asosan kuzatuv, yarim strukturalangan suhbat, psixologik diagnostika hamda ertak-terapevtik mashgʻulotlar jarayonini tahlil qilish orqali yigʻildi. Bolalarning emosional holati va muloqotga kirishish darajasini baholashda Dembo–Rubinshteyn shkalasi hamda rasm asosidagi proektiv topshiriqlardan foydalanildi. Shuningdek, oʻquvchilar nutq faolligi ertak tinglash, qayta hikoya qilish va rolli sahnalashtirish jarayonlarida kuzatilib, ularning muloqotdagi oʻzgarishlari qayd etildi. Olingan maʼlumotlar mazmuniy tahlil usuli orqali guruhlangan boʻlib, ularning asosiy tendensiyalari, takrorlanuvchi xulq-atvor modellarini aniqlashga eʼtibor qaratildi. Shuningdek, ertak terapiyasi oldi va keyingi holatlarini solishtirish orqali bolalarning nutqiy faolligi, oʻziga ishonch va ijtimoiy moslashuv darajasidagi oʻzgarishlar aniqlanib, ularning sifat koʻrsatkichlari tahliliy umumlashtirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ertak terapiyasining mohiyati – bu bolalarning ichki kechinmalarini, hissiy holatini va hayotiy tajribasini ertak syujeti orqali aks ettirish hamda tahlil qilishga asoslangan psixokorreksion usuldir. Ushbu metodning nazariy asoslari K. Yungning arxetiplar haqidagi gʻoyalari hamda V. Proppning ertak strukturasi haqidagi ishlanmalariga borib taqaladi. Ertak terapiyasida bola ertak qahramonlari bilan oʻzini qiyoslaydi, ular orqali oʻz hayotidagi muammolarni anglaydi va yechim topishga oʻrganadi. Nutqida nuqsoni boʻlgan bolalar koʻpincha oʻz fikrlarini erkin ifoda etishda qiynaladilar, shu sababli ertak terapiyasi ularga bilvosita, ramziy shaklda oʻz his-tuygʻularini bayon etish imkonini beradi. Bu usul ularning emotsional barqarorligini oshiradi, muloqotga kirishish istagini kuchaytiradi va shaxslararo munosabatlarda ishonchni shakllantiradi.

### Ertak terapiyasining kichik maktab yoshidagi bolalarga ta'siri

Kichik maktab davrida bola real hayot va badiiy obraz o'rtasidagi farqni anglay boshlaydi, lekin hali ham fantaziya va o'yin orqali o'zini ifoda etish eng tabiiy usul hisoblanadi. Shu sababli ertak shakli psixokorreksiya uchun eng qulay vositadir. Ertak terapiyasi orqali bola quyidagi psixologik jihatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

1. **Nutq faolligi oshadi:** ertakni tinglash, qayta hikoya qilish yoki o'z versiyasini tuzish orqali bola nutqini mashq qiladi.
2. **O'ziga ishonch ortadi:** qahramonning sinovlardan muvaffaqiyatli o'tishi bolada "men ham uddalay olaman" degan ijobiy ichki motivatsiyani uyg'otadi.
3. **Emotsional holat barqarorlashadi:** ertakdagi ijobiy yakunlar bola ruhiyatiga tinchlik va umid hissini singdiradi.
4. **Shaxslararo munosabatlar yaxshilanadi:** ertakdagi do'stlik, yordam, bag'rikenglik kabi g'oyalar bolada ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiradi.

### Ertak terapiyasi orqali shaxslararo munosabatni korreksiyalash bosqichlari

1. **Diagnostik bosqich** – bolaning hissiy holatini, nutqiy rivojlanish darajasini va tengdoshlari bilan munosabatini o'rganish. Bu bosqichda kuzatuv, suhbat, "Oilam" yoki "Mening sinfim" mavzusidagi rasm tahlili qo'llaniladi.
2. **Ertak tanlash bosqichi** – bolaning yosh xususiyatlari, nutq nuqsoni turi va muammosiga mos ertak tanlanadi. Masalan, duduqlanuvchi bolalar uchun qo'rquvni yengish, jasorat va sabr haqida ertaklar samarali bo'ladi.
3. **Tinglash va muhokama bosqichi** – ertak voqealari tahlil qilinadi, qahramonlarning his-tuyg'ulari haqida suhbat o'tkaziladi: "Sen bu joyda nima his qilarding?", "Qahramon o'rnida bo'lsang, nima qilarding?".
4. **Ijodiy faoliyat bosqichi** – bola ertakni davom ettiradi, rasm chizadi, qahramonlar rollarini ijro etadi. Bu jarayon orqali u muloqot ko'nikmalarini mustahkamlaydi.
5. **Refleksiya bosqichi** – bolalar o'z his-tuyg'ularini ifoda etadilar, ertak orqali nimani o'rganganlarini aytadilar. Shu tarzda o'zini anglash jarayoni faollashadi.

### Ertak terapiyasi mashg'ulotlaridan namunalar

1. **"Men jasurman" ertagi** asosida rolli o'yin o'tkazilib, bola qo'rquvni yengish va o'z fikrini aytish tajribasini oladi.
2. **"Sehrli so'zlar" mashqi** – bola ertakdagi mehr, sabr, do'stlik so'zlarini nutqida ishlatadi va ularning mazmunini tushuntiradi.
3. **"Yarimta ertak" texnikasi** – terapevt ertakni to'xtatadi, bola uni o'zicha davom ettiradi. Bu mashq bolaning nutq faolligini, ijodkorligini va ishonchini oshiradi.

### Oila va maktabning roli

Ertak terapiyasining samarasi ko'p jihatdan oila va maktab hamkorligiga bog'liq. Ota-onalar bolasi bilan birgalikda ertak o'qib, uni muhokama qilish orqali bola bilan hissiy aloqa o'rnatadilar. Pedagoglar esa dars jarayonida ijobiy ertak motivlarini, rolli sahnalashtirishni qo'llash orqali bolalarning muloqotga kirishish istagini oshiradilar.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik maktab yoshidagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda kompleks yondashuv – logopedik, psixologik va pedagogik metodlarning uyg'un qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday bolalarda nutqdagi buzilishlar nafaqat muloqot jarayonini, balki ularning shaxsiy rivojlanishi, o'ziga ishonchi va tengdoshlari bilan munosabatini ham sezilarli darajada cheklaydi. Shu bois nutq kamchiliklarini bartaraf etish bilan bir qatorda, bolaning ichki hissiy dunyosiga, emotsional holatiga va ijtimoiy moslashuviga ham alohida e'tibor berish zarur.

Ertak terapiyasi ana shunday ko'p qirrali psixokorreksion usullardan biri sifatida o'zini oqlagan. U bolalarning ichki kechinmalarini yumshoq shaklda ifoda etishga, salbiy his-tuyg'ularni qayta ishlashga, ijobiy xulq modellarini shakllantirishga yordam beradi. Ertak syujetlari orqali bola o'z hayotidagi qiyinchiliklarni ramziy tarzda yengish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa unda o'ziga ishonch, irodaviy barqarorlik va ijtimoiy faollikni rivoj-

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

lantiradi. Ertak terapiyasi mashg'ulotlari bolalarning nutq faolligini oshirish, emotsional muvozanatini tiklash, ijobiy o'z-o'zini baholashni shakllantirish hamda shaxslararo munosabatlarda ochiqlikni rivojlantirishda samarali natija beradi.

Ayniqsa, ertaklarni tinglash, tahlil qilish, rolli sahnalashtirish va ijodiy qayta hikoya qilish kabi faol mashg'ulotlar bolalarda tabiiy nutqiy muloqotni rag'batlantiradi. Bundan tashqari, ertak terapiyasi jarayonida oila va maktabning o'zaro hamkorligi muhim o'rin tutadi. Ota-onalarning emotsional qo'llab-quvvatlashi, pedagoglarning individual yondashuvi va logopedik hamda psixologik yordamning uyg'unlashuvi natijasida bolaning ijtimoiy moslashuvi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Umuman olganda, ertak terapiyasidan foydalanish kichik maktab yoshidagi nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydigan, ularning shaxslararo munosabatlarini ijobiy tomonga o'zgartiradigan samarali psixokorreksion vosita hisoblanadi. Shu sababli, ushbu metodni logopedik amaliyot, psixologik maslahat va ta'lim jarayonida muntazam qo'llash dolzarb va istiqbolli yo'nalishlardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Логопедия (под ред. проф. Л.С. Волковой). – М., 2003.
2. Ляпидевский С.С. Невропатология. – М., 2001.
3. Краузе Е.Н. Логопедия. – М., 2003.
4. Логопедия (под ред. Л.С. Волковой). – М., 2002.
5. Логопедия (Л. Маминова, М. Аюпова). – Т., 1993.
6. Ляпидевский С.С. Невропатология. – М., 2001.
7. Поваляева М.А. Справочник логопеда. – М., 2002.
8. Хрестоматия по логопедии. Т. 1 (под ред. Л.С. Волковой, В.И. Селиверстова). – М., 1997.
9. Филичева Т.Б. и др. Дети с фонетико-фонематическим недоразвитием. – М.: ГНОМ и Д, 2000.
10. Ковшиков В.А. Экспрессивная алалия и методы её преодоления. – Санкт-Петербург: КАРО, 2006. – 12 с.
11. Mo'minova L.R., Amirsaidova Sh.M., Mamarajabova Z.N., Xamidova M.U., Yakubjanova D.B., Jalolova Z.M., Abidova N.Z. Maxsus psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. – 157 b.
12. Ayupova M.Y. Logopediya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2019. – 560 b.
13. Shomaxmudova R.Sh., Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
14. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2013. – 130 b.
15. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Barkamol Fayz Media, 2018. – 432 b.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №12**



© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.